

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

MUHANDISLIK QURILISH INFRASTRUKTURASI FAKULTETI

“Geodeziya va kadastr” kafedrası

“Himoyaga ruxsat etildi”
MQIF dekani
dots. S.A. Tashpo'latov

“_____” _____ 2014 y.

5311500 – “Geodeziya, kartografiya va kadastr” yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun bajarilgan diplom loyihasi

TUSHUNTIRISH XATI

Diplom loyihasining mavzusi: ***“Toshken tshahar Sergeli tumanida joylashgan
“ENTROPIYA” xususiy firmasiga qarashli binolar kadastrini tuzish va
baholash”.***

Tushuntirish xati____ - bet

Loyiha muallifi 3b-10 GKK
Islamova Aziza Nuriddinovna _____
Rahbari: dotsent Nazarov B.R. _____
Maslahatchi: Abdullaev T.M. _____
“YERGEODEZKADASTR”
Davlat qo'mitasi raisi
birinchi o'rinbosari

“GvaK” kafedrası “_____” _____ 2014 y. №__ bayonnomasi
Bilan “himoyaga tavsiya etilgan”
kaf. mudiri _____ B. Nazarov

Toshkent 2014 y.

TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI
MUXANDISLIK QURILISH INFRASTRUKTURASI FAKULTETI

“Geodeziya va kadastr” kafedrası

Yo’nalish: 5311500- “Geodeziya, kartografiya va kadastr”

“TASDIQLAYMAN”
kafedra mudiri _____
“___” _____ **20__ yil.**

DIPLOM LOYIHASI BO’YICHA TOPSHIRIQ

Talaba *Islamova Aziza Nuriddinovna*

1.Diplom loyihasi: *“Toshkent shahar Sergeli tumanida joylashgan “ENTROPIYA” xususiy firmasiga qarashli binolar kadastrini tuzish va baholash”.*

Rektorning 10.12.2013 yil. 2/335 sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan.

2.Diplom loyihasini old himoyaga taqdim etish muddati: 25.06.2014y.

3. Mavzu bo’yicha dastlabki ma’lumotlar beruvchi adabiyotlar ro’yxati:

1. “Davlat kadastr asoslari” A.R. Bobojonov, H.A. Ishmuxamedova, O’quv qo’llanma, Toshkent, 2009y.
2. “Davlat kadastrlari to’g’risida” gi qonun, Toshkent, O’zbekiston, 2000y.
2. “Davlat kadastr asoslari” NishonboevN. Tashkent. TAQI. 2007y.
3. “Ko’chmas mulkni baholash asoslari” To’ychievN.J., Mirxoshimov A.M., Plaxtiy K.A. O’quv qo’llanma. - Toshkent: Adolat, 2000y.
4. “Yer kadastr” (darslik) Babajanov A.R., RaxmanovK.R., Gofirov A. Toshkent 2008y.

4.Diplom loyihasining maqsadi va hal qilinadigan masalalar:

Diplom loyihasini maqsadi Toshkent shahar Sergeli tumanida joylashgan *“ENTROPIYA”* xususiy firmasiga qarashli binolar kadastrini tuzish va baholash” daniborat. Kadastr haqida umumiy ma’lumotlarni to’plash, ko’chmas mulk ob’ektlarini baholash, ob’ektning inventar narxlash hisobotini tuzish va hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muxofazasi to’g’risida ma’lumotlar berish.

5. Grafik qism materiallari ro’yxati:

- 1.Yer uchastkasi joylashgan xudud tafsiloti
- 2.Yer uchastkasi chegaralarini shakl-tasviri
3. Ob’ekt joylashgan xududning bosh rejasi
- 4.Binoning tarxi

6. Maslahatchilar:

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.SH.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qilindi qabul
Kadastr haqida umumiy ma'lumotlar			
Ko'chmas mulk ob'ektlarini baholash			
Ko'chmas mulk ob'ektiga kadastr ishi			
Bino va inshootlar pasporti			

7. Diplom loyihasini bajarish rejasi

№	Bosqichlar nomi	Bajarish muddati	Bajarilganlik belgisi (rahbar imzosi)
1.	Kadastr turlari va xorijiy mamalakatlarda kadastr tizimini tuzish ishlari		
2.	Davlat kadastrining vazifalariva davlat kadastrining yagona tizimi va uning ob'ektlari		
3.	Bino va inshootlarni baholash va bino va inshootlarni baza narxida baholash		
4.	Bino va inshootlarni o'lchashdagi ko'rsatgichlar, baholashdagi territorial koeffitsentlar kapital guruhini belgilash		
5.	Bino va inshootlarni baholash va qayta baholash ishlarini bajarish tartibi		
6.	Ob'ektning kadastr ish ito'g'risidagi umumiy ma'lumotlar, Yer uchastkasi chegaralarini shakl-tasvirini chizish va Yer uchastkasi chegaralarini aniqlash va kelishish namunaviy dalolatnomasi tuzish.		
7.	Yer uchastkasi burilish nuqtalari, chegaralarini ta'riflash		
8.	Bino va inshootlar hisob varaqasini tuzish, davlat ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim qilingan xujjatlar ro'yxatini tuzish		
9.	Davlat mulki bo'lgan yer uchastkasiga ____- sonli ijara shartnoma namunasi tuzish va ob'ektning inventar narxlash hisobotini tuzish		
10.	Malakaviy bitiruv ishining matniy va grafik qismini rasmiylashtirish		

Bitiruv ishi rahbari: dotsent NazarovB.R. _____

Topshiriqni bajarishga oldim _____
talaba imzosi

“ _____ ” 2013yil

MUNDARIJA

KIRISH

1-BOB. KADASTR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

- 1.1. Kadastr turlari.....
- 1.2. Xorijiy mamalakatlarda kadastr tizimini
Tuzish ishlari.....
- 1.3. Davlat kadastrining vazifalari.....
- 1.4. Davlat kadastrining yagona tizimi va uning ob'ektlari.....

2-BOB. KO'CHMAS MULK OB'EKTLARINI BAHOLASH

- 2.1. Bino va inshootlarni baholash.....
- 2.2. Bino va inshootlarni baza narxida baholash.....
- 2.3. Bino va inshootlarni o'lchashdagi ko'rsatgichlar, baholashdagi.....
Territorial koeffitsientlar kapital guruhini belgilash.....
- 2.4. Bino va inshootlarni baholash va qayta baholash ishlarini
Bajarish tartibi.....

3-BOB. KO'CHMAS MULK OB'EKTIGA KADASTR ISHI

- 3.1. Ob'ektning kadastr ishi to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar.....
- 3.2. Yer uchastkasi chegaralarini shakl-tasviri.....
- 3.3. Yer uchastkasi chegaralarini aniqlash va kelishish
Namunaviy dalolatnomasi
- 3.4. Yer uchastkasi burilish nuqtalari va chegaralarining ta'rifi.....
- 3.4. Yer uchastkasi joylashgan xudud tafsiloti.....

4-BOB. BINO VA INSHOOTLAR PASPORTI

- 4.1. Bino va inshootlar hisob varaqasini tuzish.....
- 4.2. Davlat ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim qilingan xujjatlar
ro'yxati.....
- 4.3. Davlat mulki bo'lgan yer uchastkasiga ____ - sonli ijara
Shartnomasi tuzish namunasi.....
- 4.4. Ob'ektning inventar narxlash hisobotini tuzish.....
- Umumiy xulosa
- Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
- Ilovalar

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi qonunlari va me'yoriy xujjatlar asosida "Yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli mulkni soliqqa tortish" to'g'risida va 1994 yil 9 dekabr № 591 sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qaroriga asosan jismoniy shaxslarga tegishli xususiy mulklarni baholash va qayta baholash tartibi to'g'risidagi (turar-joy binolari, kvartiralar, dala xovlilar, garajlar va boshqa kurilish ob'ektlarini) soliqqa tortishishlari amalga oshirish belgilandi.

Yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan xususiy mulkning baxosini belgilash ishlarini shakllantirish va ro'yxatga olish "Yer va ko'chmas mulk kadastri" boshqarmalariga yuklatildi.

Maxalliy Davlat soliq qo'mitalari tomonidan ob'ektlarni baholash va qayta baholash ishlarini nazorati belgilangan.

Maxalliy «Yer va ko'chmas mulk kadastri» boshqarmalari «Soliq qo'mita» larining talablariga binoan yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli mulklarni baholash va qayta baholash, ro'yxatga olishishlari aniqlanadi va bajariladi.

Baxolash ob'ektlarni soliqqa tortishda turar-joy binolari, kvartiralar, dala xovlilar, garaj va boshqa qurilishlar, binolar va inshootlar foydalanish uchun qabul qilingan, qurilishi tugallangan ob'ektlar va maxalliy «Yer va ko'chmas mulk kadastri» boshqarmalaridan ro'yxatdan o'tgan ob'ektlar jismoniy shaxslarning xususiy mulki bo'lgan soliq ob'ektlari hisoblanadi.

Ob'ektlar, binolar va inshootlarni baholash va soliqqa tortish quyidagi xollarda olinmaydi:

- yil davomida qurilishlar qurilayotgan binolar va inshootlar.
- keraksiz binolar va inshootlar.
- maxalliy davlat xokimiyati organlari qarori bilan xar xil sabablarga ko'ra foydalanish uchun yaroqsiz ob'ektlar.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'zboshimchalik bilanq urilgan va foydalanayotgan ob'ektlarni ham baholash va soliqqa tortish bunday ob'ektlardan soliq to'lash yuridik va jismoniy shaxslar uchun har xil xukukiy kafolat bermaydi, bu esa soliq majburiyatini belgilaydi.

O'zboshimchalik va xujjatsiz bilan qurilgan va keraksiz binolarni «Yer va ko'chmas mulk kadastrini» boshqarmalari tomonidan texnik ro'yxatdan o'tkazilganligi, baxolash to'g'risidagi ma'lumot maxalliy xokimiyatga topshiriladi va bu to'g'risda kelgusida bu binolar to'g'risida yo'nalishi va tegishliligi tartibga solish paytidagi o'rnatilgan me'yoriy xujjatlar va qonunlar asosida aniqlanadi.

Diplom loyihasini maqsadi Toshkent shahar Sergeli tumanida joylashgan **“ENTROPIYA”** xususiy firmasiga qarashli binolar kadastrini tuzish va baholash” dan iborat bo'lib, unda kadastr haqidagi umumiy ma'lumotlar, ko'chmas mulk ob'ektlarini baholash masalalari, ko'chmas mulk ob'ektiga kadastr ishini tuzish, bino va inshootlar pasportini yaratish va ob'ektdagi binolarni inventar bahosini hisoblashdan iboratdir.

1-BOB. KADASTR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1.Kadastrning turlari

Kadastr so'zi yunoncha katastichon so'zidan fransuz tiliga kadastre shaklida o'tgan bo'lib, o'zbek tiliga aynan tarjima qilinsa varaq, mol- mulk daftari yoki mulkiy daftar ma'nosini bildiradi.

Bu so'z ko'pgina boshqa qadimgi atamalar kabi vaqt o'tishi bilan o'zining ilk bor ko'zda tutilgan mazmuniga uncha tug'ri kelmaydi. Hozirgi kadastr deganda yer va boshqa ko'pgina kuchmas mulklar xaqida keng qamrovli, nihoyatda teran, ancha murakkab tushuncha nazarda tutiladi.

Shu bois kadastr so'zini ta'riflayotganda, avval unga qo'yilayotgan talab va vazifalarga, nima maqsadda bajarilayotganiga qarab ta'rif beriladi.

Shunday qilib kadastrning ta'riflari quyidagicha bo'ladi:

a) Kadastr deb, muayyan obekt (yer, suv, bino va inshootlar yoki boshq.) xaqida davriy yoki uzliksiz ravishda kuzatish orqali tuziladigan va tartibga solib turiladigan ma'lumotlar to'plamiga aytiladi.

b) Kadastr deb, muayyan ob'ekt yoki vakillikni, ba'zi xollarda, ularni iqtisodiy baholashni xam o'z ichiga olgan holda, son va sifat jihatdan hisobiy ruyxatini tuzishga aytiladi.

v) kadastr – rasmiy tashkilotlar yoki muassasalar tomonidan tuzilgan mulkiy daftardir.

KADASTR TURLARI: Kadastr turlari ko'p. Masalan davlat yer kadastri, davlat suv kadastri, o'rmon baliqchiligi, arxitektura obidalari va boshqa yuzdan ortiq davlat kadastrlari turlari bor.

Ushbu kitobda yer kadastri, bino va inshootlar kuchmas mulk kadastri va shahar kadastrini ko'rib chiqamiz.

YER KADASTRI: Yer uchastkalari xaqidagi ma'lumotlar yig'indisi. U kitob tarzida, kartoteka yoki ma'lumotlarning tizimi tarzida tuzilgan. Yer kadastri, yer uchastkalarini tartib raqamlari, tavsifi, yer egalari xaqida ma'lumotlar to'plangan bo'ladi.

Davlat yer kadastrida esa, asosan, yerlarning tabiiy xo'jalig, xuquqiy xolatlari xaqida ishonchli ma'lumotlar tuplanadi. Davlat yer kadastrida yer egalariining ro'yxati, yerning miqdori, uning sifati, tuproq bonitirovkasi, yerning iqtisodiy bahosi ko'rsatiladi.

KUCHMAS MULK KADASTRI: Barcha yuridik idoralar va jismoniy shaxslarga mansub bo'lgan binolar va inshootlar davlat hisobiga olinib, kadastr ro'yxatga kiritiladi. Kuchmas mulk kadastr yuridik kuchga ega bo'lgan xujjatdir.

SHAHAR KADASTRI: Shahar xududida mavjud bo'lgan ob'ektlarning xuquqiy, xo'jalik, tabiiy va iqtisodiy holati haqidagi ma'lumotlar to'plamidir. U shaharning rivojlanishini va kunlik faoliyatini ta'minlaydi va shahar muxitining vaqt o'tishi bilan yuz berayotgan o'zgarishlarni hisobga oladi.

YURIDIK KADASTRI: Kuchmas mulkka bo'lgan mulkni xuquq haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan va bu xuquqlarni ro'yxatdan o'tkazishni taminlaydigan axborot tizimiga yuridik kadastr deyiladi.

1.2. Xorijiy mamalakatlarda kadastr tizimi tuzish ishlari

Ko'pgina mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining assosiy omillaridan biri ularda mavjud, tabiiy manbalardan oqilona foydalanishdir. Yer xam ana shunday manbalarning asosiysidir.

Yer manbalaridan foydalanishning samarasini oshirish uchun, u xaqda quyidagi ma'lumotlarni yig'ish maqsadga mavofiqdir.

Avvalo, yerga egalik xuquqi, undan foydalanish xuquqining mavjudligi, yer va boshqa ko'chmas mulkning baxosi, ulardan olinadigan soliq miqdori, xatto yer va ko'chmas mulk joylashgan mintaqaning rivojlanish rejasini tuzish, shular jumlasidandir.

Yer va boshqa ko'chmas mulklar xaqida ko'plab ma'lumotlarni bir joyga yig'ish, ularni qayta ishlash, saqlash va zarur bo'lganda ulardan foydalanish muommalarini echish maqsadida yer yoki ko'chmas mulk kadastr tizimi tuziladi.

Xozirgi zomon kadastr tizimi xar bir xorijiy mamalakatda o'z xususiyatlariga ega, masalan: Farangistonni olib kuraylik.

Mamlakatda xammasi bo'lib 97 mln. Yer uchastkalari (parsellar) va 37000 xususiy uylar, xonadonlar, dukan, sanoat korxonalarining binolari bor.

Shuning uchun Farangistonda avval soliq miqdorini aniqlash maqsadida soliq (fiskal) kadastr tuzilgan. Asosan kadastr yer uchastkalarining xususiyatlari bir xil deb olinib ularning maydonlarini hisobga olgan holda soliq miqdori aniqlangan.

Farangiston yer kadastrining xozirgi vazifalari quyidagilardan iborat: kadastr planlarini tuzish yer uchastkalari tuzish egalik xuquqini aniqlash ularning maydonlarini o'lchash, yerni va boshqa kuchmas mulkn ibaxolash, shularni hisobga olgan holda soliq miqdorini keltirib chikarishdan iborat.

Kadastr faoliyati Tuluz shaxrida joylashgan milliy kadastr xizmati tomonidan, Parijdagi Davlat kadastr xujjatlari xizmati idorasi va davlat departamentlarida joylashgan mintakaviy solik boshqarmalari tomonidan bajariladi.

Tizimga 5 ta mintaqaviy hisoblash markazi va 306 maxalliy kadastr byurosi kiradi. Bular soliq boshqarmalarini uzlarining ma'lumotlar bankidagi so'ngi uzgarishlari bilan tizim orkali xabardor qilib turadi.

Umuman olganda avtomatlashtirilgan tizimning asosiy vazifasi barcha yer uchastkalari, ko'chmas mulk ob'ektlari xakidagi ma'limotlarni yigish, saklash, uni qayta ishlashdan iborat.

Ispaniya kadastr tizimi 3 boskichga ega.

1. Kadastr markazi. U mamlakatdagi barcha kadastr xizmatini boshqaradi. U asosan kadastr modelini me'oriy xujjatlarni tayyorlaydi.

2. Provintsiyalardagi boshqarmalarda kadastr markazidan olingan yo'riknomalarda ko'rsatilgan vazifalarni quyi tashkilotlarda bajarib ish yuritadi. Barcha ishlar 3 boskichda ya'ni munitsipal kadastr bo'linmalaridan bajariladi.

Olmoniyada kadastr ishlari kadastr yer boshqarmalari tomanidan bajariladi.

Bunday boshkarmalar odatda ichki ishlar vazirligi yoki moliya vazirligi tarkibida bulgan.

Kadastr xaritalari 1: 5000 - 1:-200000 nisbatlarida tuziladi.

Maxalliykadastrboshkarmalariuzlariga ajratilgan xududlardagimavjudyerva kuchmasmulklarnihisobga oladi.

Ularrita'riflaydi.Kadastrma'lumotlariuzliksizravishda yangilanibturadi.

Yerva ubilanboglikbulganbarcha turdagikuchmasmulklarning xozirgi xolati "Yerkitobi" da qayd qilinadi.

Ko'pgina ovropa mamalakatlaridagidek SHVETSIYADA xam kadastr ko'p maqsadlidir. Kadastr ma'limotlari yer va boshqa ko'chmas mulk egalarining yerga mulkka egalik xuquqini maxsus mulkiy kitoblarda qayd qiladi, soliq miqdorini belgilaydi undan tashqari davlatning yer manbalarining samarasini oshirish borasidagi siyosatiga xizmat qiladi.

Shved yer kadastr milliy yer xizmati tizimiga mansub. Bu tizim 3 bosqichdan iborat bo'lib, markaziy boshqaruv, 5 mintaqaviy boshqarma va 100 dan ortiq bo'limlardan iborat.

Yer kadastiri masalalari qamroviga kadastr ma'lumotlarini to'plash, ularni qayta ishlash, saqlash, mulkiy xuquq, yer va mulkni soliqqa tortish vazifalaridan tashqari yer uchastkalarini shakllantirish, ularning tasvirlovini tayyorlash kabi ishlar ham kiradi.

1.3. Davlat kadastrining vazifalari

Davlat yerning yagona egasi sifatida yer fondini boshqarishni amalga oshiradi. Bu esa yer kadastriga davlat ahamiyatini beradi. Uning ma'lumotlari, birinchi navbatda yerlarni ro'yxat qilish, ma'lumotlar jamiki yer resurslarini davlat tomonidan boshqarishni yanada takomillashtirish maqsadlarida foydalanibgina qolmasdan, balki yerlarga davlat egalik huquqini muhofaza qilish maqsadlarida shuningdek boshqa mulkdorlar, yer egalari va yerdan foydalanuvchilar huquqlarini xam muhofaza qilishda foydalanadi.

Shuning uchun xam yer kadastr ma'lumotlari faqatgina iqtisodiy ahamiyatga molik bo'libgina qolmasdan, xuquqiy ahamiyatga xam egadir.

Kadastr ma'lumotlari davlat yoki boshqa jamoat maqsadlari uchun yer ajratishni asoslashda katta ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida xam atrof-muhitni, jumladan yer resurslarini muhofaza qilish, yer resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish ko'zda tutilgan. Bunday tadbirlar sirasiga xududni oqilona tashkil etish, tuproq unumdorligini oshirish, yerlarni suv va shamol eroziyasidan, sellardan, suvbosishdan, zaxlanishdan, qayta shurlanishdan, qaqrab qolishdan, ishlab chiqarish chiqindilari, kimyoviy radioaktiv moddalar bilan ifloslanishdan ximoya qilish, buzilgan yerlarni qayta ekinzorlarga aylantirish kabilar kiradi. Bu masalalarni xal qilish mamlakat yer resurslarini sifat holati to'g'risida to'liq va xar tomonlama ma'lumotlarga asoslanishi zarur.

Jumladan, "Yer soligi tug'risida", "Fermer xujaligi tug'risida", "Dexqon xujaligi tug'risida"gi "(kooperativ) Shirkat xo'jaligi tug'risida" gi qonunlarni amaliyotga tadbqiq qilish, qishloq xujaligida agrar islohotlarni amalga oshirish birinchi galda yer kadastr ma'lumotlariga tayanadi.

Yer kadastr ma'lumotlari birinchi galda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirish uchun zarurdir.

Yer kadastr materiallari yerdan foydalanganlik uchun xaq undirishda birlamchi asos bo'lib xizmat qilish zarur. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida yerdan foydalanganlik uchun xaq to'lanadi. Yer uchun xaq xar yili to'lanadigan yer solig'I shaklida olinadi, uning miqdori yer uchastkalarining sifatiga, joylashishiga va suv bilan ta'minlash darajasiga qarab belgilanadi. Yer uchastkalari ijaraga berilganda yer uchun xaq ijara xaqi shaklida olinadi, uning miqdori taraflarning kelishuviga muvofiq belgilanadi.

Yer kadastr ma'lumotlari yerlar holatini va yerlardan foydalanishni yaxshilash bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish uchun xam nihoyatda zarur. Davlat yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdor ishga o'z yerlaridan foydalanishlarida yerdan belgilangan maqsadga muvofiq oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishning tabiatning muhofaza qiluvchi texnologiyalarini qo'llash, o'z xujalik faoliyati natijasida xududda ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik, tuproqni suv va shamol eroziyasidan, qayta shurlanish va botqoqlanishdan asrash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish kabi

majburiyatlar yuklagan. Bularni amalga oshirish uchun albatta yer maydonlarini sifat jihatidan hisob-kitobi ma'lumotlari zarur.

Shunday qilib, yer kadastrining vazifasi xozirgi sharoitda ko'p qirrali. Ular xalk xujaligi talablaridan, yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish zaruriyatlaridan kelib chiqqan. Bularning barchasi yer kadastrining xalq xo'jaligi ahamiyatiga molik ekanligini ko'rsatadi.

1.4. Davlat kadastrining yagona tizimi va uning ob'ektlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1996 yil 17 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida davlat kadastrlari yagona tizimini tashkil etish va uni yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 255-sonli qaroriga binoan hozirgi kunda respublikada davlat kadastrining yagona tizimi vujudga kelmoqda. Davlat kadastrlarining yagona tizimi (DKYAT) - bu barcha turdagi davlat va tarmoq kadastrlarini birlashtiruvchi ko'p qirrali informatsion tizim. DKYAT yer yuzasining har bir hisob-kadastr uchastkasi bo'yicha ularning geografik holatini, xuquqiy va xo'jalik statusini ko'rsatgan holda yer, suv, o'rmon, qazilma boyliklar, ko'chmas mulk va boshqa tabiiy va xo'jalik resurslari to'g'risidagi xujjatlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bunday tizim asosan O'zbekiston Respublikasining tabiiy-iqtisodiy saloxiyatini umumdavlat nuqtai-nazaridan kompleks hisob-kitob va baholashni ta'minlash maqsadida yaratiladi va yuritiladi. Yer uchastkalari va ob'ektlarni xuquqiy hisoblari to'g'risidagi ma'lumotlar, belgilangan tartibga mos aniqlangan va tarmoq kadastrining ma'lumotlari DKYATning asosini tashkil etadi.

DKYAT asosan davlat boshqaruv tizimini, xuquqiy va jismoniy shaxslarni ular faoliyatlari uchun zarur ma'lumotlar hamda xududlar va kuchmas mulk to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tezkorlikda ta'minlashga mo'ljallangan.

DKYAT ob'ektlari quyidagilar:

- tabiiy resurslar (yer, suv, o'rmon, yer osti qazilma boyliklari va b.);
- binolar va inshootlar, transport va muhandislik kommunikatsiyalari;
- geodezik tarmoqlar punktlari;
- DKYAT vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan boshqa elementlar.

DKYATning ob'ektlari to'g'risidagi ma'lumotlar respublika bo'yicha quyidagicha yagona texnologiya asosida qoraladi:

- davlat yer kadastr bo'yicha-joylardagi davlat xokimiyati tizimi, qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan;
- davlat suvkadastr bo'yicha – gidromelioratsiya bo'yicha Bosh boshqarma (tabiiy suv manbalari), geologiyava mineral resurslar Davlat qo'mitasi (yer ostisuvlari),

qishloq va suv xo'jaligi vazirligi (suv resurslaridan foydalanish va yerlarning meliorativ xolati);

- davlat o'rmon kadastri bo'yicha - o'rmonchilik Davlat qo'mitasi;

- davlat yer osti qazilma boyliklari kadastri bo'yicha – geologiya va mineral resurslar Davlat qo'mitasi;

- ko'chmas mulk kadastri bo'yicha – joylardagi davlat xokimiyati organlari xamda geodeziya, kartogroafiya va davlat kadasri Bosh boshqarmasi;

- davlat qurilish kadasatri bo'yicha- joylardagi davlat xokimiyati organlari xamda arxitektura va qurilish Davlat qo'mitasi;

DKYAT ma'lumotlari asosan quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi:

- iqtisodiy isloxotlarni amalga oshirish;

- xududiy kompleks tarzda iqtisodiy – ijtimoiy rivojlantirishga dasturlar va bashoratlar tuzish;

- tabiiy resurslar va ko'chmas mulkni kompleks hisob qilish, baholash va monitoringni o'tkazish;

- xo'jalik yuritish sub'ektlari tomonidan tabiiy ob'ektlar va xududlarga yetkazilgan zararni baholash;

- xududlar to'g'risida ma'lumotlar talab qilinadigan boshqa faoliyatlarni amalga oshirish;

DKYAT O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi qoshidagi geodeziya, kartografiya va Davlat kadastrlari Bosh boshqarmasining davlat kadastri hizmati tomonidan olib boriladi. U o'z faoliyatini Vazirlar Maxkamasi tomonidan tasdiqlangan qoidalarga muvofiq holda olib boradi.

DKYAT asosan quyidagi prinsiplarga binoan yuritiladi:

- respublikaning barcha xududlarini qamrab olish;

- markazlashgan rahbarlik;

- kadastr ma'lumotlarini qayta ishlash va taqdim etishning birligi;

- barcha turdagi kadastr tizimining yer kadastri asosida shakllanishi;

- avtomatlashtirilgan geoinformatsion texnologiyalarni qo'llash;

- ma'lumotlarning ob'ektivligi, to'laligi, aniqligi, hamda xaqqoniyligi;

- informatsiyalar to'ldirilishi va yangilanishining uzluksizligi;

-ma'lum chegaralangan foydalanuvchilardagi mavjud ma'lumotlarning maxfiyligi;

Shunday qilib, respublikamizda shunday yagona informatsion kadastr tizimi vujudga kelmoqdaki, u so'zsiz xalq xo'jaligi uchun, ayniqsa, hozirgi bozor munosabatlari sharoitida muxim ahamiyatga egadir.

2-BOB. KO'CHMAS MULK OB'EKTLARINI BAHOLASH

2.1. Bino va inshootlarni baholash

Baholash ob'ektlarni soliqqa tortishda turar-joy binolari, kvartiralar, dala xovlilar, garaj va boshqa qurilishlar, binolar va inshootlar foydalanish uchun qabul qilingan, qurilishi tugallangan ob'ektlar va mahalliy «Yer va ko'chmas mulk kadastri» boshqarmalaridan ro'yxatdan o'tgan ob'ektlar jismoniy shaxslarning xususiy mulki bo'lgan soliq ob'ektlari hisoblanadi.

Ob'ektlar, binolar va inshootlarni baholash va soliqqa tortish quyidagi xollarda olinmaydi:

- yil davomida qurilishlar qurilayotgan binolar va inshootlar.
- keraksiz binolar va inshootlar.
- mahalliy davlat xokimiyati organlari qarori bilan har xil sabablarga ko'ra foydalanish uchun yaroqsiz ob'ektlar.

Jismoniy shaxslar tomonidan o'zboshimchalik bilan qurilgan va foydalanayotgan ob'ektlarni ham baholash va soliqqa tortish bunday ob'ektlardan soliq to'lash jismoniy shaxslar uchun har xil huquqiy kafolat bermaydi, bu esa soliq majburiyatini belgilaydi.

O'zboshimchalik bilan qurilgan va keraksiz binolarni «Yer va kuchmas mulk kadastri» boshqarmalari tomonidan texnik ro'yxatdan o'tkazilganligi, baholash to'g'risidagi ma'lumot mahalliy xokimiyatga topshiriladi va bu to'g'rida kelgusida bu binolar to'g'risida yo'nalishi va tegishliligi tartibga olish paytidagi o'rnatilgan me'yoriy xujjatlar va qonunlar asosida aniqlandi.

2.2. Bino va inshootlarni baza narxida baholash

Binolar va inshootlarni baholashda 1991 yil bazis narxida ishlab chiqilgan jadvallardan foydalanilib, ularning to'liq haqiqiy bahosini Qoraqolpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat xokimliklari va Toshkent shahar xokimligi tomonidan tasdiqlangan baholash koeffitsientlari bilan binolar va inshootlarning ro'yxatga olish paytidagi bahosi aniqlanadi.

Binolar va inshootlarning bazis narxidagi to'liq haqiqiy bahosida quyidagilarni o'z ichiga oladi: qurilish-montaj ishlarini, pardo maxsus qurilishlari va bundan tashqari qurilish tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan mahalliy xarajatlari ham e'tiborga olinadi.

Binolar va inshootlarning bahosini aniqlashdagi ma'lumotlarga asosan baholash paytidagi haqiqiy bahosidan kelib chiqib soliq stavkasi belgilanadi.

Turar-joy binolari va boshqa inshootlarning fizik yemirilishini binolar va inshootlarning konstruktiv elementlarini tekshirish natijalariga asosan fizik yemirilishi aniqlanadi.

Baholash paytida binolar va inshootlar konstruktiv elementlarini tekshirish va ularning texnik holatidan kelib chiqib foizlash asosida fizik yemirilishi aniqlanadi.

Turar-joy binolari fizik yemirilishi QM va Q 2.01.16-97 "Turar-joy binolari konstruksiya va elementlarining fizik yemirilishni aniqlash" asosida aniqlanadi.

Turar-joy binolar va inshootlar fizik yemirilishi foydalanish kunidan va me'yoriy muddat xizmati bog'liqligi xizmat muddati asosida jadval bo'yicha aniqlanadi .

Jismoniy shaxslarning xususiy mulki huquqini berish bo'lgan turar-joy binolari, kvartiralar, garajlar va boshqa qurilishlarni baholash va qayta baholash funksional birlik ko'rsatgich binoning xonaning umumiy maydoni metr kvadratda o'rnatiladi.

Baholangan paytdagi qurilishlar, xonalar va inshootlar asosiy ishlab chiqarish fondlarini qayta baholash o'tkazilayotganda ro'yxatga olish ma'lumotlari bugungi kunda foydalaniyotgan me'yoriy xujjatlar va ushbu yo'riqnoma asosida texnik inventarizatsiyalash va ro'yxatga olish belgilanadi.

Qurilishlar, xonalar va inshootlarni inventarizatsiyalash ishlari besh yilda kamida bir marta ishlab chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Komunal xizmat Vazirligi tomonidan tasdiqlangan va Goskomprognostat, Moliya Vazirligi va Davlat Soliq qo'mitasi bilan kelishilgan holda jismoniy shaxslarga tegishli mulklarni baholash va qayta baholash me'yoriy xujjatlar asosida ishlab chiqiladi.

Jismoniy shaxslarga tegishli qurilishlarni, inshootlarni bir oy muddat davomida "Yer va ko'chmas mulk kadastri" boshqarmalari mahalliy xokimiyat organlariga va soliq inspeksiyalariga soliqqa tortiladigan ob'ektlarning joylari to'g'risida ma'lumot berishi shart.

Ushbu yo'riqnoma va me'yoriy xujjatlar asosida qurilishlarning haqiqiy bahosi o'zgarmasdan navbatdagi baholash va qayta baholashgacha o'zgarmasdan qoladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat va Toshkent shahar xokimliklari mahalliy moliya, territoriyal komunal xizmat tashkilotlari, soliq organlarining ma'lumotlariga asosan shu baxoning inflyatsiyasi va o'zgarishini e'tiborga olgan holda shu yili uchun to'g'rilovchi indeksatsiya (to'g'rilovchi) koeffitsenti soliqqa tortish bo'yicha tasdiqlaydilar.

Jismoniy shaxslarga tegishli mulklarning o'zgartirilishi (qayta ta'mirlash, biriktirib qurilgan, qurilgan qurilish ob'ektlari) soliq organlariga yangi baholangani bo'yicha ma'lumot beradi.

2.3. Bino va inshootlarni o'lchashdagi ko'rsatkichlar baholashdagi territorial koeffitsentlar kapital guruhini belgilash

Bino va inshootlar o'lchov birligi tiklanish bahosi ($1m^2$ bino umumiy maydoni, 1p.m. trubaprovod, $1m^2$ xovli xonasi territoriyalarning, 1p.m. to'siqlar va boshqalar) qo'llash yiriklashtirish ko'rsatkichli tiklanish bahosiga bog'liq holda yo'nalishlari, konstruktsiyasi kapital guruhi, jihozlanishi, o'lchamlari va jismoniy shaxslarga mulk xukukini berish yo'naltirilgan.

Tiklanish bahosi yiriklashtirish ko'rsatkichlari quyidagilar bino va inshootlarga xamma to'g'ri xarajatlar nakladnoy sarflar, rejali orttirmalar va boshqa harajatlar kiradi.

1991 yil 1 yanvarda qurilishlarga qo'llanilgan yiriklashtiruvchi ko'rsatkichlar me'yorlar, narxlar va tariflar to'zilgan.

Qo'llanmadagi jadvalda yiriklashtiruvchi ko'rsatkichlar tiklanish bahosi Toshkent shahri va Toshkent viloyati uchun $1m^2$ umumiy maydonga nisbatan berilgan. Binoning $1m^2$ umumiy maydonining tiklanish bahosi boshqa viloyatlar uchun Toshkent viloyati bazoviy bahosiga ko'paytiriladi va ulardagi to'g'rilovchi koeffitsentlar quyidagicha:

Qoraqolpog'iston Respublikasi.	0,97
Andijon viloyati.	-0,89
Buxoro viloyati.	-1,03
Jizzax viloyati.	+1,10
Qashqadaryo viloyati.	0,99
Navoiy viloyati.	0,98
Namangan viloyati.	0,97
Samarqand viloyati.	- 1,06
Surxondaryo viloyati.	-1,04
Sirdaryo viloyati.	-1,31
Farg'ona viloyati.	-0,94
Xorazm viloyati.	-1,03

Qo'llanmadan zaruriy ko'rsatkichlarni tanlashda baholanayotgan ob'ektlarning yo'nalishi va konstruktsiyasiga bog'liq holda ishlab chiqiladi (poydevorlar materiali devor, ora yopmasi tashqi va ichki pardoqlari boshqalar), kapital guruhi va xududning joyiga bog'liq holda tanlanadi.

Baholash jadvali tarkibiga quyidagi ko'rsatkichlar kiradi:

- a) Binolar kapital guruhi.
- b) Bino konstruktsiyalari tavsifiva jihozlash elementlari.
- v) O'lchov birligi bahosi, bino yoki inshootning maydoni ($1m^2$, $1p.m.$ va boshqalar).
- g) Baholanayotgan binolarga jihozlash turlari borligi yoki bor bo'lmagan bog'liqliklarga qo'shish va kamaytiruchi tug'rilovchi koeffitsientlarining zaruriylarini qo'llash.
- d) Alohida konstruktiv elementlarning sof og'irligi, % da.

Binolarning kapital guruhini aniqlash quyidagi jadvaldan aniqlanadi:

1-jadval

N N t\s	Konstruktsiyasi.	Kapitalguruhi.				
		I	II	IV	V	VI
1	Poydevori.	Temir-betonli, betonli, butatosh, butabetonli, g'ishtli.			Yogoch ustunli, tosh ustunli.	Loyli-betonli, gurunli.
2	Devor.	Tabiy toshli g'ishtar, yirik blokli, yirik panelli.	Pishirilgan xamma turdagi g'ishtar yoki toshlar	Tekislangan yogochlar va brusli, birgalikda.	Shitli, karkasli to'qima, birgalikda.	Karkas – qorishma va boshqa turlari.
3	Orayopma	Temir-betonli		Yog'ochli, birgalikda (metal balka va yogoch bilan to'ldirilgan)	Yog'och balkali.	
4	Tom yopmasi.	Metal tunukali.		Asbest shiferli	Cherepitsali	

Ob'ektlar qavatlar bo'yiga qurilish xajmiga nisbatan devor materiallar turlariga bog'liq holda bo'lingan.

Tiklanish bahosining yiriklashtirish ko'rsatkichi so'mda aniqlangan.

Jadvaldagi keltirilgan baholanayotgan binolarning to'g'ri koeffitsientlarga qo'shish va kamaytiruvchi o'lchov birligining bahosiga bor bo'lgan har xil konstrukti velementlar yoki har xil jihozlanishlariga bog'liq holda korrektirovka qilinadi.

Baholanayotgan ob'ektni korrektirovkalashda, yo'q jihozlash-turlarini chiqarish va binoda bor bo'lgan jihozlanish turlarini qo'shish kerak bo'ladi.

Misol: Baholanayotgan binoda pechkali isitish bor, u holda jadvaldagi markazlashtirilgan isitish sistemaning bahosini chiqarib va unga pechkali isitish sistemasi bahosi qo'shib hisoblanadi.

1m² parketli pol bahosi qo'shilganda, parket pollinoleum pol bahosi nisbatan, quyidagi o'lchovlarda kamaytirish keltirilgan (so'mda).

Toshkent viloyati.	-9,10
Qoraqolpog'iston Respublikasi.	-8,00
Andijon viloyati.	-9,00
Buxoro viloyati.	-6,00
Jizzax viloyati.	-6,20
Qashqadaryo viloyati.	-10,80
Namangan viloyati.	-9,10
Samarqand viloyati.	-7,70
Surxondaryo viloyati.	-8,00
Sirdaryo viloyati.	-7,50
Farg'ona viloyati.	-6,92
Xorazm viloyati.	-7,64
Toshkent shahri.	-10,40

Bino va inshootlarni baholash va qayta baholashda kapital guruhi fakti qo'llanma jadvalidagi ko'rsatilgan kapital guruhga to'g'ri kelmagan holda

qo'llanmadagi yiriklashtiruvchi ko'rsatkich quyidagi to'g'rilovchi koeffitsientlarni qo'llash, ular quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Ko'llanmadagika pitalguruhiiyirikla	Boshqa kapitalguruhga o'tishdagitug'rilovchikoeffitsientlar					
	I	II	III	IV	V	VI
I	1,00	0,93	0,86	0,8	0,7	0,
II	1,08	1,00	0,93	0	4	69
III	1,16	1,08	1,00	0,8	0,8	0,
IV	1,25	1,16	1,08	6	0	74
V	1,35	1,25	1,16	0,9	0,8	0,
VI	1,45	1,35	1,25	3	6	80

Ushbu qo'llanmadagi bino va inshootlar ichki pardozi xarakteriga bog'liq holda jadvalda oddiy va yaxshi turlariga bo'lingan.

Baholanayotgan binolarda tasviriy sa'nat jihozlari bilan (ganch va yog'ochga rezbali, tasviriy yozuvlar va boshqalar) jihozlangandagi bahosi tasviriy-jihozlash narxi bo'yicha alohida baholanadi bu ishlar, izox 1;2;3da keltirilib bino yoki inshootlar tiklash bahosiga qo'shiladi.

Bino va inshootlar qisman suvoqlangan fasadi ko'rsatkichlari (tsokol, otkos, karnizlar) devor ganchlarining rosshivkasi berilgan.

Baholanayotgan bino fasadi to'liq tsement-ohak qorishmasi bilan suvoqlanganda, jadvaldagi bahosini quyidagi foizlarda oshiriladi. **3-jadval**

NN t/s.	Fasadningme'm oriyjihozlanishi.	%da oshirilishi	% rangliqorish mali	% mramorkr oshkali
1	Oddiydarajada	2,80	4,20	5,60
2	O'rtacha darajada	3,40	5,10	6,80
3	Oliydarajada	5,10	7,65	10,20

Xonaning o'rtacha foydalanish balandligi 3 metr bo'lganda qo'llanmada jadval bahosi o'lchov birligi berilgan. Baholanayotgan ob'ektdagi foydalanish balandligi qabul qilingan hisobiy-balandlikdan 3 metrdan o'zgarganda, jadval bahosi to'g'rilovchi koeffitsenti quyidagi jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Bino	Foydalanishbalandligim.da.	Tug'rilovchikoeffitsent
Turar-joy		0,95
	2,50	0,96
	2,60	0,97
	2,70	0,98
	2,80	0,99
	2,90	1,00
	3,00	1,01
	3,10	1,
	3,20	02
	3,30	1,
	3,40	03
	3,50	1,04
	3,60	1,05
	3,70	1,06
	3,80	1,07
	3,90	1,08
	4,00	1,09
		1,10

Bahalanayotgan bino va inshootlarning fizik emirilishini QMQ 2.01.16-97 «Turar-joy binolari fizik emirilishini baholash» tartibi asosida «Yer va ko'chmas mulk kadastri xizmati» xodimlari tomonidan aniqlanib, O'zbekiston Respublikasi Kommunal xizmati Vazirligining 03.12.1996 yil №157 sonli qarorining tasdiqlangan «Jismoniy shaxslarga mulk xukukini beruvchi bino va inshootlarni baholash va qayta baholash yo'riqnomasi» asosida aniqlanadi.

Bino va inshootlarni baholash va qayta baholashishlarini engillashtirish maqsadida, alohida konstruktiv elementlarining xar xil darajadagi emirilishini, xar bir

jadvaldagi tiklanish bahosi ushbu konstruktiv elementlarning sof og'irligi bino yoki inshootlarning to'liq bahosi foizda keltirilgan.

Ob'ektlar qavatlar bo'yiga qurilish xajmiga nisbatan devor materiallar turlariga bog'lik holda bo'lingan.

Tiklanish bahosining yiriklashtirish ko'rsatkichi so'mda aniqlangan.

Jadvaldagi keltirilgan baholanayotgan binolarning to'g'ri koeffitsientlarga qo'shish va kamaytiruvchi o'lchov birligining bahosiga bor bo'lgan xar xil konstruktiv elementlar yoki xar xil jihozlanishlariga bog'lik holda korrektirovka qilinadi.

Baholanayotgan ob'ektni korrektirovkalashda, yo'q jihozlash-turlarini chiqarish va binoda bor bo'lgan jihozlanish turlarini qo'shish kerak bo'ladi.

Misol: Baholanayotgan binoda pechkali isitish bor, u holda jadvaldagi markazlashtirilgan isitish sistemaning bahosini chiqarib va unga pechkali isitish sistemasi bahosi qo'shib hisoblanadi.

1mparketli pol bahosi qo'shilganda, parket pol linoleum pol bahosi nisbatan, quyidagi o'lchovlarda kamaytirish keltirilgan (so'mda).

2.4. Bino va inshootlarni baholash va qayta baholash ishlarini

Bajarish tartibi

Jismoniy shaxslarga tegishli mulklarni baholash va qayta baholash ishlari quyidagi tartibda bajariladi:

Baholanayotgan bino va inshootlarni aniqlash, nomlanishi va yo'nalishlari bo'yicha KM va K 2.01.94 talablari va qoidalari asosida birlik baholari ishlab chiqiladi.

“Turar-joy binolarini texnik emirilishidan o'tkazish yo'riqnoma”si asosida baholanadigan ob'ektlar maydonlari hisobi ishlab chiqilib. Binolar 1 m² umumiy maydoni, bir pogonniy metr truboprovot, xovli territoriyasi yuzasi bir metr kvadrat, tusiqlar va boshqalar, ularning yo'lanishlari, konstruktsiyasi, kapital guruhi, obodonlashtirish darajasi va boshqa texnik iqtisodiy tavsifnomalari aniqlanadi.

Qo'llanma yiriklashtirish ko'rsatgichlari jadvali bo'yicha 1m² umumiy maydonning ko'rsatgichlari asosida bino va inshootlarning tiklanish bahosi

aniqlanadi, baholanadigan ob'ektlar yo'nalishi va konstruksiyaga bog'liq holda, poydevor devor, ora yopma, tom yopma, eshik va derazalari, poli, tashqi va ichki pardozi, obodonlashtirish darajasi bilan, ularning kapital guruhiga bog'liq holda ishlab chiqiladi.

Qo'llanmalar yiriklashtiruvchi ko'rsatgichlariga bog'liq holda baholanayotgan ob'ektlar tavsifnomasi asosida ko'taruvchiva pasaytiruvchi koeffitsentlar aniqlanib, quyidagi to'g'rilovchi koeffitsentlar kiradi:

K_1 - baholanayotgan ob'ektlar foydalanish balandligi.

K_2 - kapital guruhi.

K_3 - seysmik xudud.

K_4 - tashqi va ichki pardozi turi.

K_5 - obodonlashtirish turlarining borligi va boshqalar.

Ob'ektlar to'liq tiklanish bahosi maydonlari yoki xajmini birlik baholash narxiga kupaytirilib, yiriklashtirish ko'rsatgichlari qo'llangan. 1 yanvar 1991 yil bazaviy narxi bo'yicha aniqlanadi.

$$S_{t.b.} = S \cdot C_{e.i.} \cdot K_1 \cdot K_2 \cdot \dots \cdot K_n$$

bu erda: $S_{t.b.}$ -1991 yildagi to'liq tiklashni bahosi, so'm.

S -baholanayotgan ob'ekt (maydoni m_2 ; m_3 ; $p.m$).

K_1 ; K_2 ; ... K_n -baholanayotgan ob'ektlarning tavsifidagi to'g'rilovchi koeffitsentlar.

Baholash paytidagi qurilishlarning bahosi va qayta baholash Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat xokimlar va Toshkent shahar xokimligi tomonidan indeksatsiya koeffitsentlari qaror asosida tasdiqlanadi.

Baholashpaytida to'liq tiklanish bahosi 1991 yil narxida ob'ekt bahosi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat xokimligi va Toshkent shahar xokimiyati tasdiqlangan indeksatsiya koeffitsentiga kupaytirilib topiladi.

$$S_{t.t.b.} = S_{t.b.} \cdot U_u;$$

bunda: $S_{t.t.b.}$ - baholash paytidagi narx bo'yicha to'liq tiklanish bahosi, so'm.

$S_{t.b.}$ - 1991 yilgi bazaviy narxdagi to'liq tiklanish bahosi.

U_u - baholash paytidagi qurilish bahosini oshirish bo'yicha xokimiyat Tomonidan tasdiqlangan koeffitsent.

Baholanayotgan bino va inshootlar fizik emirilishi “Yer va kuchmas mulk kadastri” boshqarmalari xodimlari tomonidan KMK 2.01.16-97 “Turar-joy binolarining fizik emirilishi bo’yicha baholash tartibi” asosida aniqlanadi.

Bino va inshootlarni tashkil etgan butun xajmi bo’yicha, konstruktsiyalari, elementlari, injenerlik jihozlari va boshqalarni fizik emirilishini boshlang’ich texnik-foydalanish sifati (mustahkamligi, ustivorligiva boshqalar) ko’rsatgichlarning ta’siri, tabiiy-klimatik faktorlar va kishilarning xayot xavfsizligi faktorlari xam e’tiborga olinadi.

